

**ADABIYOT GULISTONINING MUATTAR GULI**

Termiz davlat universiteti 2-bosqich 123-guruh talabasi

Farangiz Abdurahmonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada benazir iste'dod sohibi, ulug' fors shoiri Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari badiiy jihatdan talqin etiladi. Shuningdek, asardan o'rin olgan mo'jaz va ibratli hikoyatlar adabiyot va hayot haqiqatiga ko'ra tahlil qilinadi hamda ulardan tegishli xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: hikoyat, hasbi hol, "Guliston" asari, talqin, debocha.

Abstract: This article interprets the work "Guliston" by the great Persian poet Saadi Shirazi, a man of unparalleled talent. The poetic and instructive stories from the work are also analyzed in accordance with the realities of literature and life, and appropriate conclusions are drawn from them.

Keywords: story, situation, "Gulistan", interpretation, preface.

Adabiyot ochunini misli bir guliston desak, o'z ismi jismiga mutanosib "Guliston" asari bu gulzorning eng muattar bo'yli, latif shaklli guli bo'lishga munosibdir. Asar Eronzaminning ulug' adibi, aqli va tafakkuri, go'zal uslubi hamda behad jo'yali mantig'i bilan adabiyot olamini nurlarga to'ldirgan Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy qalamraviga mansub. Adibning ushbu asari nafaqat Eronda, balkim dunyoning yetti iqlim mamlakatlarida topib, sevilib o'qiladigan asarlar sirasiga kiradi. Darhaqiqat, hatto asarning she'riy tarjimasi ustida ish olib borgan iste'dodli adabiyotshunis Sh.Shomuhamedov ta'kidlaganidek, "Adabiyotshunoslar nazdida, fors-tojik klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning "Shohnoma" "si bo'lsa, nasriy asarlarning eng barjastasi "Guliston" hisoblanadi".¹ Asarning kompozitsion tuzilishi turli mazmunga boy hikoyatlardan iborat bo'lib, har bir hikoyat masnaviy, qit'a, fard kabi lirik she'r turlari bilan bezatilgan va bu an'anaviy uslub o'quvchiga

¹ Sa'diy Sheroziy "Guliston". www.ziyouz.com kutubxonasi. 5b



fazilatlar va hayotiy falsafani tushunib olishda juda yengillashtiribgina qolmasdan hamda zavq-u shavq bergan.

Asar nafaqat axloq, odob, tarbiya, pand-nasihat, hayotiy ta'lim, ezgu xislatlar, balki siyosat va ishq, xullas inson deb atalmish yaratilishning butun umriga bog'liq har qanday jarayonni, har qanday hodisalar dengizida zarur bo'lgan asbob-u anjomni, foydali maslahatlarni qamrab oladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, asar "Debocha" sida adib o'z asarini 8 bobga ajratadi. Aslida, "Debocha – shoirning tarjimayi holiga oid ma'lumotlar, adabiy faoliyati, asarlarining yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Istilohda 1. Qimmatbaho ipak matodan tikilgan shohona libos. 2. Zarhal va qimmatbaho ranglar bilan sayqal berilgan qadimgi kitoblar muqaddimasi. 3. So'zboshi, muqaddima, kirish so'zi. 4. Avval, har narsaning ibtidosi kabi ma'nolarni anglatadi".²

1. Podshohlar odati bayoni
2. Darveshlar axloqi bayoni
3. Qanoatning fazilati bayoni
4. Sukut saqlashning foydalari bayoni
5. Ishq va yoshlik bayoni
6. Zaiflik keksalik bayoni
7. Tarbiyaning ta'siri bayoni
8. Suhbat qoidalari bayoni

Kitobning sarlavhasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Guliston" – barcha gullar, go'zallik va nafosat jamuljam bo'lgan makon degan ma'nolarni beradi. "Debocha" da nom qo'yilishiga doir yozuvchining o'z qarashlari ham berib o'tilgan:

Kunlardan bir kuni adib saroy xizmatidan ketishni endi tarki dunyo qilib hech kim bilan muloqot qilmaslikka qat'iy bel bog'laydi. Uning o'rinli sababi bor edi. U bir hikoyat eshitgan hikoyatda aytilishicha Buyuk Fors podshosi Buzurjmehrdan donishmandlar nuqson qidirib hech ayb topolmaydilar, tinglovchini mahtal qilib ko'p o'ylab gapirishini hisobga olmaganda. Shunda Buzurjmehr:

² Farida Karimova . Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi. Toshkent. Elnur-print. 2023.



- Nima desam deb o'ylash, nega shunday deb qo'ydim deb o'ylashdan ko'ra xo'proqdir.

Degan ekan. Darhaqiqat,

Tilingnj avayla omondir boshing

So'zingni avayla uzayar yoshing.

Inson avval o'ylab, keyin so'ylamasa, o'z boshiga falak g'am toshlarini yog'dirishi mumkin. Shunday ekan shu kuni kechquruni bilan tunni bedor o'tkazib azm qiladiki, bundan keyin ko'ngil xazinasidan hech bir dur chiqmaydi, ya'ni endi do'stlar davrasidan qo'l yuvib, qalb daftaridagi ortiqcha jummlarni chiqarmaydi. Lekin uning yaqin bir hamnishini uni hol-joniga qo'ymaydi. Rad etib bo'lmaydigan mantiqli dalillar keltirgach, u bilan so'zlashmaslikka bahona topa olmaydi. Uning dalillari ham ma'noga, ham aql javohiriga to'la ediki, Sa'diy bir og'iz qarshi fikr bildirsa olmaydi.

Og'iz ichida til nedur, ey oqil?

Hunar xazinasin kalididur u

Eshik yopiq ekan bilib bo'lmagay

U yerda nima bor munchoqmi, inju.

Xullas, til ham bir ilohiy ne'mat ekanligini uning ham o'z vaqtida yetish lozimligini isbotlab beradi. Zarurat yuzasidan gaplashishni boshlaydi-yu, shahar tashqarisiga sayr qilish uchun ravona bo'lishadi. O'sha paytlar fasli navbahor, gullab yashnagan chamanzorlar payti bo'ladiki, qanday kech bo'lganini bilmasdan bir do'stinikida tunab qolishga majbur bo'lishadi. Shunday qilib erta tongdan shaharga qaytishga majbur bo'lishadi va ammo yo'ldan qaytayotganida bir do'stiga gullarga oshufta bo'lib bir quchoq qilib terib olganida Sa'diy :

Har narsa bordirki, bevafo dir – muhabbat qo'yishganoravodir

Deyishgan. Ya'ni bu gullaring baribir so'lib qoladi-ku! – deydi.

Istasang, men senga shunday kitob yozayki, uning xuahbo'y isi butun umr yodingdan ketmasin, unga hatti xazon fasli lashkarlari ham daf eta olmasin.

Uning nomini esa "Guliston" deb qo'yaman. – deb javob beradi. Do'sti esa uning qo'liga yopishib olib:



“Karam sohibi bo‘lgan odam va'da berdimi- bajaradi” deya o‘z qiziqishini bildiradi va intizorlik bilan ushbu asarni kutishini aytadi. Demak, har bir sinoatning, hodisotlarning o‘z tarixi bo‘lganidek, ushbu asarga sarlavha qo‘yilishining ham munis tarixini ko‘rib o‘tdik.

Asarning kompozitsion tuzilishi, faqat hikoyatlardan iboratligi an’anaviy uslub bo‘lib, ushbu asardan ancha ilgari yozilgan hind xalqining noyob va qimmatbaho asarlaridan biri bo‘lmish “Kalila va Dimna”, “To‘tinoma” , “Qobusnoma” kabi kitoblarga nazira sifatida bitilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarning ilk bobida shunday hikoyat keltiriladi:

Bir podshoh asirni o‘ldirtirayotganda bir vaziri podshohlarning sarvari karam qilishi kerakligini aytib undan shafqat so‘raydi, shu payt ikkinchi vaziri u asir podshohni haqorat qilayotganini, afvga munosib emasligini aytib o‘tadi. Podshoh g‘azablanish o‘rniga birinchi vazirga olqov aytib, g‘arazli haqiqatdan yaxshi niyatli yolg‘on yaxshi ekanligini eslatib, asirni ozod etadi. Ya'ni

Shohlarga o‘z gapin o‘tkazgan kishi

Lozimdir yaxshi gap topib aytishi.

Podshohning eng suyangan tog‘i, davlatning tayanch nuqtalaridan biri aql xurshidi bilan shoh yo‘lini yoritguvchi dono va maslahatgo‘y vazirdir. U tufayli podshoh ulkan yutuqlarga, doim zafarlarga mustahiq bo‘lgay.

Asarda nafaqat podshohning , vazirning, amaldorlarning qanday bo‘lishi kerakligi haqida, balki dunyo falsafasi ham o‘tkir nafaslarda keltirib o‘tilgan.

Jon berar ekansan farqi yo‘q sira

Taxtda o‘lasanmi yo tuproq uzra

Bu hayot foniy - o‘tkinchidir, unga berilib, mol-dunyoga hirs qo‘yib, o‘zlikni, Allohni unutish konda xazinadan ko‘ngil uzolmay shu yerda o‘lgan oltin izlovchiga o‘xshaydi. Aslida, hayotimizning oltini avvalo Allohni so‘ngra payg‘ambarimizni tanish demakdir, eng so‘nggida esa yaqinlarimiz, o‘z hayotimizdir. Lekin biz asl ganjni unutib, temir va zeb-ziynatdan boshqaga yaramaydigan tillaga hirs qo‘ygan konchidek o‘zimizni o‘zimiz halok qilayotganimizni his qilmaymiz.



Chunonchi, asarning yettinchi bobida keltirilgan hikoyatga ko'ra bir inson "odamzod uchun eng yomon dushman nafs degan hadisning ma'nosi nima deya, bir donishmanddan so'raydi, u esa:

- Har qanday dushmanga ehson qilsang, iltifot ko'rsatsang, u oxir-oqibat do'stga aylanadi, lekin nafsga har qancha iltifot ko'rsatsang ham, u hech qachon senga oshno bo'lolmaydi".

Darhaqiqat, nafs – inson zotining eng baloyi azim bo'lgan ag'yoridir, u hech qachon to'ymaydi, qo'ymaydi.

Hatto bir "Qissasi Rabg'uziy "da:

Bir nafsning ishini 70 shayton qilolmaydi – deb nafsdan tiyilishga ogohlantirilgan.

Asarning so'nggi – yakunlovchi bobida insonning suhbatlashish madaniyati haqida so'z boradi. Masalan, asarda kishi birovning qalbini ranjitadigan xabar eshitsa, uni olamga jar solishi emas, aksincha sukut qilishi lozimligi aytikgan. Haqiqatan ham, bir qalbni vayron qilish Ka'bani vayron qilish bilan barobar, shunday ekan inson yolg'on ham gapirmasligi kerak, inson ko'ngkini ham qoldirmasligi lozim. Ushbu bobda ham faqat so'zlashish emas, aksincha inson hayoti shu dunyo bilan aloqador bo'lgani bois barcha jabhalarni qamrab olad.

Misol uchun, bir oqildan bir kishi kim baxtiyor, kim baxtsiz? – deb so'raganda:

-Baxtiyor yeb-ichadi, yana ekadi

Baxtsiz yig'adi, to'playdi, o'lib ketadi- deya javob beradi.

Rostan ham, inson yig'gani bilan uni go'riga olib keta olmaydi, shunday ekan halol mol-mulk topib uni halol ishlarga sarf qilish kerak, rizq beruvchi Al-Razzoqdir, ya'ni yagona Allohdir. U chumolilarni unutmaydi-yu bizday bandalarini unutarmidi?

Shunday ekan, boriga qanoat qilib isrof ham qilmasdan, yig'ib ham qo'ymasdan Alloh rizoligida to'g'ri sarflash darkor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asar faqat mayda hikoyatlardan iborat bo'lgani bilan ushbu mo'jaz hikoyatlarning bari butun bir romanlarning o'rnini bosa oladi, ulardagi olam-olam ma'no asar ko'rkiga ko'rk qo'shib asar o'qishlilikini oshirgan.



Ayniqsa, asarga ilova qilingan lirik she'rlar adib mahoratining javohiridan o'quvchilarni bahramand qilgan. Asarni o'qigan inson o'zini xuddi g'avvosga o'xshatadi, okeanga kirib undan gavhar teradigan g'avvoslardek Guliston" ga sho'ng'ib dur-u gavharlar teradi. Mana salkam ming yil avval yozilgan asarning qiymati bugun ham katta baholanmoqda, bundan keyin ham yosh avlod buni zavq va shavq bilan o'qiydi deya ishonch bilan aytamiz.

Zero, ushbu kitob asr oshgan asarlar safida boqiy turajak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sa'diy Sheroziy "Guliston". www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. T. Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "O'zbekiston". 2002.
3. Farida Karimova . Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi. Toshkent. Elnur-print. 2023.